



**“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB TIZIMIDA KREDIT
TA’MINOTI BILAN ISHLASH TARTIBI**

Mazkur Tartibi O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Garov reyestri to'g'risida"gi Qonunlari "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel) va "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ichki hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish Tartibi" (ichki ro'yxat raqami: 638, 2025-yil 21-fevral), "Bank xizmatlarini iste'molchilar bilan munosabatlarda amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat: Adliya vazirligi №3030, 02.07.2018) hamda boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib "O'zsanoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda – Bank) tizimida kreditlash xizmatining ta'minotiga qo'yiladigan talablar va ularni rasmiylashtirish, kredit garov obyektini almashtirish jarayonida bosqichma-bosqich ozod qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi.

2. Tartibning asosiy maqsadi Bank tizimida kreditlash xizmatlarining ta'minoti sifatida likvidlik ta'minotlar olinishini ta'minlash, ta'minotlarni rasmiylashtirish, kredit garov obyektini almashtirish jarayonida bosqichma-bosqich ozod qilishda tarkibiy bo'linmalarning vazifalarini taqsimlash orqali ularni rasmiylashtirishni optimallashtirishdan iborat.

3. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalar (keyingi o'rinlarda - kreditlash xizmati) – Bank mijozlariga kredit, faktoring/xalqaro faktoring, lizing, va kafolatlar berish bilan bog'liq amaliyotlar;

majburiyat bajarilishi ta'minotlari – garov/ipoteka, kafillik, kafolat, sug'urta polisi;

garov/ipoteka – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi;

qarz oluvchi – kreditlash xizmati ko'rsatilishini so'rab Bankka murojaat qilgan yuridik/jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan shaxs;

qarzdor – kreditlash xizmati ko'rsatilgan va bugungi kunda Bank oldida qarzdorligi mavjud bo'lgan yuridik/jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan shaxs;

garovga qo'yuvchi – ashyoning (ko'char, ko'chmas mol-mulk) mulkdori yoki garovga qo'yiladigan huquqning egasi bo'lgan shaxs. Qarz oluvchining o'zi ham uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin;

garovga oluvchi – Bank va uning hududlardagi bank xizmatlari ofislari va markazlari (keyingi o'rinlarda – Bank tarmoqlari);

garov/ipoteka shartnomasi – mol-mulk obyektini kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish bo'yicha tomonlar o'rtasida imzolanadigan, kredit shartnomasiga asosan qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchilarning Bank oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan bitim;

kafil – qarz oluvchining o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga olgan yuridik/jismoniy va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan shaxslar;

kafillik shartnomasi – kafil qarz oluvchining o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun Bank oldida javob berishni o'z zimmasiga olganligini tasdiqlovchi bitim;

garov reyestri – qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida berib qo'ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to'g'risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo'yilgan cheklov hamda qarzdor o'z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta'minlashi bilan bog'liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning yagona axborot bazasi;

2-bob. Kredit ta'minotini qisman ozod etish tartibi

4. Quyidagi hollarda kredit ta'minotlarini qisman garovdan ozod etish Kredit monitoringi va nazorati departamenti (keyingi o'rinlarda – Monitoring departamenti) vakolati doirasida amalga oshirilishi mumkin:

ajratilgan kreditning 70 foizidan kam bo'lmagan qismi qarzdor tomonidan ixtiyoriy ravishda kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda yoki muddatidan oldin qoplanganda;

kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim etilgan mulkning garovga olish qiymati (bank bahosi) miqdorida pul mablag'lari taqdim etilganda;

ta'minot sifatida kredit qarzdorligi va unga hisoblangan foizlarni qoplashga yetarli bo'lgan likvidlik mol-mulk garovi kredit qoldig'ining 125% (*aloqador shaxslar uchun 130%, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun 150%*)idan yuqorini tashkil etgan kreditlarning garovga olingan mulklarini qisman garovdan chiqarish;

mol-mulk garovi 125% (*aloqador shaxslar uchun 130%, xorijiy valyutadagi kreditlar uchun 150%*)idan yuqorini tashkil etgan kreditlar bo'yicha ta'minot sifatida rasmiylashtirilgan kafilliklarni yoki sug'urta polislarini ta'minotdan chiqarish (*kredit qarzdorliklari kafil hisobidan so'ndirilib kelinayotgan holatlar bundan mustasno*);

kredit hisobiga sotib olingan transport vositalari hamda maxsus texnikalarni garovdan chiqarish (*Hukumat qarorlariga asosan maqsadli jamg'armalar yoki boshqa manbalar hisobidan ajratilgan imtiyozli kreditlar bundan mustasno*).

5. Monitoring departamenti tomonidan mustaqil ko'rib chiqilishi uchun qarzdor hamda unga ajratilgan kreditlar quyidagi talablarga javob berishi shart:

kreditlar shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar toifasiga kirmagan bo'lishi (*Hukumat qarorlariga asosan pandemiya va tabiiy ofatlar sababli shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar bundan mustasno*);

Bank tizimida va boshqa banklarda muddati o'tgan kredit qarzdorligi mavjud bo'lmasligi; kredit mablag'lari maqsadli ishlatilgan bo'lishi (*maqsadli ishlatilish talab etilmaydigan holatlar bundan mustasno*);

mijozning kredit tarixida 30 kundan oshgan muddati o'tgan qarzdorlik shakllanganlik holatlari 3 martadan ko'p bo'lmasligi;

kollegial organ qarori asosida belgilangan shartlarning to'liq bajarilganligi;

avvalgi olingan kreditlari bo'yicha 90 kundan oshgan muammoli qarzdorliklari yuzaga kelmaganligi yoki sud jarayonlari olib borilmaganligi;

ta'minot tarkibidan qisman ozod qilinayotgan mulk, ta'minotdan chiqarilmayotgan boshqa mol-mulkardan yuqori (likvidlik) bo'lmasligi;

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning kafilligi taqdim qilingan hollarda kredit shartnomada ko'rsatilgan garovni ta'minotdan chiqarishdan oldin “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning roziligi olinishi lozim.

6. Monitoring departamenti vakolati doirasida kredit ta'minotini qisman ozod etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

qarz oluvchi va/yoki garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulklarni garovdan qisman chiqarish bo'yicha ariza taqdim etiladi (ariza bank tarmog'iga kelib tushgan kun bilan ro'yxatga olinishi lozim);

bank tarmoqlaridagi Kredit monitoringi va nazorati xizmati (*keyingi o'rinlarda – Tarmoqlardagi monitoring xizmati*) xodimi mazkur Tartibning 4 va 5-bandlarida keltirilgan shartlarga asosan arizani o'rganadi hamda o'rganish natijasidan kelib, 2 bank ish kunidan kechiktirilmagan holda, bank xizmatlari ofisi/markazi boshqaruvchisi imzosi bilan Monitoring departamentiga xizmat yozishmasi yuboradi;

Taqdim etilgan xizmat yozishmasi va unga ilova qilingan hujjatlarga asosan, Monitoring departamentining mas'ul xodimi tomonidan 2 bank ish kuni ichida kredit ta'minotini qisman ozod etish yuzasidan xulosa tayyorlanadi hamda Monitoring departamenti direktoriga taqdim etiladi.

Xulosaga Monitoring departamenti direktor tasdig'i olinganidan (imzolangandan) so'ng, murojaat bo'yicha kredit ta'minotlari tarkibidan garov mulki 1 bank ish kunida chiqariladi;

Agar, qarz oluvchi va/yoki garovga qo'yuvchilarning murojaati o'rganish natijasiga ko'ra, Tarmoqlardagi monitoring xizmati xodimi/Monitoring departamenti tomonidan rad etilganda, rad etish asoslari ko'rsatilgan holda, 1 bank ish kunidan kechiktirilmasdan murojaatchi(lar)ga yozma xabar beriladi.

3-bob. Kredit ta'minoti tarkibiga o'zgartirish kiritish bilan bog'liq amaliyotlar

7. Monitoring departamenti tomonidan chakana, mikro va kichik biznes yo'nalishida kredit ta'minoti tarkibiga o'zgartirish kiritish quyidagi qoidalarga asosan amalga oshiriladi:

ta'minot tarkibidagi garovlarni qisman ozod qilish;

ta'minot tarkibidagi mol-mulklar yoki kafilliklar almashinishi.

8. Kredit ta'minot tarkibidagi garovlarni qisman ozod qilish yoki garov narsasini almashtirishda dastlab tegishli tarkibiy bo'linmalar tomonidan qarzdorning murojaati Bank Kredit siyosati va ushbu Tartib qoidalarga zid kelmasligi o'rganib chiqilishi lozim.

9. Ta'minot tarkibidan mulkiy garovlarni qisman ozod qilish yoki garov narsasini almashtirishda dastlab mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan ta'minot tarkibidagi barcha mulkiy garovlarni joyiga chiqqan holda o'rganiladi. Bunda ushbu garov obyektlari holati, dastlab kredit ajratilgunga qadar olingan fotosuratlar asosida solishtirilib, garov mulkiga ziyon yetkazilmaganligi tekshiriladi.

10. Ta'minot tarkibidan mulkiy garovlarni qisman ozod qilish yoki garov narsasini almashtirish bo'yicha murojaat Bank kredit siyosati va ushbu Tartib qoidalarga zid kelmagan taqdirda mazkur Tartibning 1-ilovasida keltirilgan namunaviy ariza suhbat o'tkazilgan holda mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan rasmiylashtiriladi va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinadi (ariza suhbat o'tkazilgan kun bilan ro'yxatga olinishi lozim).

11. Arizada ko'rsatilgan murojaatdan kelib chiqib, qarzdorga mazkur Tartibning 2-ilovasida keltirilgan taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati beriladi.

12. Ta'minot tarkibidagi garovlarni qisman ozod qilish va ta'minot tarkibidagi mol-mulklar yoki kafilliklar almashinishida mijozga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

1) kreditlash xizmati bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmasligi;

2) o‘zaro aloqador korxonalarining “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida muddati o‘tgan kredit qarzdorliklari mavjud bo‘lmasligi;

3) 2-sonli kartoteka hisobvarag‘ida qarzdorlik mavjud bo‘lmasligi;

4) KATM onlayn ma‘lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o‘zaro aloqador korxonalarining “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” toifalarida tasniflangan joriy (amaldagi) kreditlari mavjud bo‘lmasligi;

5) Oxirgi 12 oyda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida oydan oyga o‘tgan kredit bo‘yicha to‘lovlar (*asosiy qarz va/yoki foiz*) 2 martadan ko‘p bo‘lmasligi;

6) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo‘yicha oraliq hamda yakuniy to‘lov muddatini uzaytirish holatlari jami 2 tadan ko‘p bo‘lmasligi;

7) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kreditga hisoblangan foiz qarzdorligi bo‘yicha to‘lov muddatini uzaytirish holatlari jami 2 tadan ko‘p bo‘lmasligi;

8) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik bo‘yicha shartlari qayta ko‘rib chiqilgan hisobvaraqlarida qoldiq mavjud bo‘lmasligi;

9) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida mavjud kreditlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan foiz qarzdorliklari qoldig‘i mavjud bo‘lmasligi;

10) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kollegial organ tomonidan belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari mavjud bo‘lmasligi;

11) “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo‘lmasligi lozim. *(Maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv tarmoqlardagi monitoring xizmati maqsadli ishlatilganlik to‘g‘risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar bo‘yicha maqsadli ishlatilganlik to‘g‘risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag‘larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo‘lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo‘yicha ushbu shart qo‘llanilmaydi).*

13. Qarzdorning murojaati va taqdim etilgan hujjatlardan kelib chiqib, mijoz bilan ishlovchi biznes menejer tomonidan 2 bank ish kunidan kechiktirilmagan holda xulosa tayyorlanadi. Bunda, xulosalar asoslantirilgan bo‘lishi (ijobiy) hamda mijoz bilan ishlovchi biznes menejer va Tarmoq rahbari tomonidan imzolanishi lozim.

14. Ta‘minot tarkibidagi mol-mulklar almashtirilishida, garov obyekti o‘rniga taqdim etilayotgan mol-mulk mazkur Tartib qoidalariga asosan Baholash komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqiladi va 2 bank ish kunidan kechiktirilmagan holda baholash dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Bunda, Baholash komissiyasi tomonidan ta‘minotdagi mol-mulk narxi oshirilishi ko‘zda tutilgan hollar (narx oshirilishining asoslari ya‘ni qo‘shimcha qurilish qilinganligi, bozordagi narxning oshishi va b.) o‘rganilishi lozim.

15. Monitoring departamenti tomonidan kreditning ta‘minot tarkibiga o‘zgartirish kiritish masalasi amaldagi Kredit siyosati ushbu Tartib va boshqa ichki qoidalar asosida o‘rganiladi. Bunda, ta‘minot tarkibi o‘zgartirilayotgan kreditning summasi 2,0 mln. AQSH dollari ekvivalentigacha bo‘lgan kreditlar bo‘yicha ta‘minot tarkibiga 3 bank ish kuni ichida o‘zgartirish kiritishga ruxsat beradi.

Ta'minot tarkibiga o'zgartirish kiritish bo'yicha mijoz murojaati va boshqa holatlar ushbu Tartibning 12-bandi talablariga muvofiq kelmagan taqdirda, Monitoring departamenti tomonidan 5 bank ish kuni ichida asoslantirilgan holda xulosa tayyorlanadi hamda Kredit qo'mitasi muhokamasiga kiritiladi.

16. Ta'minot tarkibidan mulkiy garovlarni qisman ozod qilish yoki garov narsasini almashtirish bo'yicha mijozning arizasi Monitoring departamenti yoki vakolatli kollegial organ tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli (ijobiy, salbiy) qaror qabul qilinganda, bu to'g'risida bank tomonidan 1 bank ish kunidan kechiktirilmasdan mijozga yozma xabar beriladi (Murojaat rad etilgan taqdirda rad etishning asoslovchi sabablari ko'rsatilgan bo'lishi lozim).

4-bob. Yakuniy qoidalar

17. Ushbu tartib Bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

18. Mazkur Tartib talablarini buzgan Bank xodimlari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

19. Bank xodimlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim, jumladan:

korruptsiya harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.

20. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

21. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish kiritilishi natijasida, mazkur Tartibning alohida normalari bir-biriga zid bo'lib qolgan taqdirda, uning normalari amalda bo'lgan qonun normalariga muvofiqlashtirilgunga qadar vaqtincha o'z kuchini yo'qotadi.

Заявление на изменение условий кредита

1. Данные о заявителе

Обслуживающий филиал

Ханабадский ЦБУ

Полное наименование

ООО

Сегмент клиентаКорпоративный

Основной вид деятельности компании

Производство

а именно:Птицеводство

№	Номер кредитного договора	Дата кредитного договора

2. Запрашиваемые изменения по кредитному договору

☐ Изменение валюты и/или суммы кредита

☐ Изменение цели кредита

☐ Изменение процентной ставки

☐ Изменение импортного контракта и/или его условия

☐ Другие изменения

☐ Изменение залогового обеспечения

☐ Изменение срока кредита

☐ Изменение источника финансирования кредита

☐ Изменение льготного периода и/или последней даты погашения кредита

3. Причины изменения условий кредитного договора

неспособность выпускаемой продукции выдерживать конкуренцию на рынке

Комментарий: (надо заполнять обоснованными фактами)

4. Согласие на получение кредитного отчета

Настоящим Заявитель выражает свое согласие и дает полномочие АКБ "Узпромстройбанк", получать кредитные отчеты и предоставлять информацию (в случае заключения Кредитного договора между Банком и Клиентом) в отношении себя (Клиента) в Бюро кредитных историй в порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан. Данное разрешение действует в течение одного месяца со дня подписания настоящего документа, а в случае заключения Кредитного договора между Банком и Клиентом - в течение всего срока действия указанного договора.

Настоящим Заявитель выражает свое согласие на обработку АКБ "Узпромстройбанк", своих персональных данных, указанных в настоящей Заявке, в порядке и на условиях, определенных законодательством Республики Узбекистан.

Цель проверки - заключение Банком с Заявителем соответствующих договоров, а также информирование Заявителя об оказываемых Банком услугах.

Способы проверки - любой способ, предусмотренный Законом и/или выбранный по усмотрению Банка.

Срок действия согласия - с момента подписания настоящей Заявки и действует до окончания срока возврата денежных средств, предоставленного Кредитным договором, а также в течение последующих 5 (Пяти) лет. По истечении указанного срока действие согласия считается продленным на каждые следующие 5 (Пять) лет при условии отсутствия у Банка сведений о его отзыве. Настоящее согласие может быть отозвано путем направления в Банк письменного уведомления об отзыве согласия.

Должность Заявителя

МП

Подпись

Дата

ЧислоМесяцГод

ФИО полностью собственноручно

Подпись

Абдуллаев Абдулла

ФИО

Должность

Дата получения анкеты ответственным сотрудником

ЧислоМесяцГод

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
tizimida kredit ta‘minoti bilan ishlash
Tartibi”ga 2-Ilova**

Kreditning ta‘minoti o‘zgartirilganda:

- 1) Qarzdor arizasi;
- 2) Qarzdor ta‘sischilar qarori (*garovdan ozod etish holatlari bundan mustasno*);
- 3) Yangi taqdim etilayotgan mulkni garovga beruvchi uchinchi shaxs (korxona) ta‘sischilarining kredit ta‘minoti sifatida mulkni garovga berish yuzasidan roziligi;
- 4) Yangi taqdim etilayotgan mulkni garovga beruvchi uchinchi shaxs korxonaning ta‘sis hujjatlari (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
- 5) Yangi taqdim etilayotgan mulkni garovga beruvchi uchinchi shaxs korxona direktori va bosh buxgalterining pasport nusxasi (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
- 6) Yangi taqdim etilayotgan kafil korxona ta‘sischilarining kafillik taqdim etish bo‘yicha roziligi;
- 7) Yangi taqdim etilayotgan kafil korxonaning Oxirgi hisobot davri uchun Balans (F1) va moliyaviy natijalar (F2) to‘g‘risidagi hisobotlari (*Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlar bazasidan onlayn tarzda olingan holatlar bundan mustasno*);
- 8) Yangi taqdim etilayotgan kafil korxonaning ta‘sis hujjatlari (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
- 9) Yangi taqdim etilayotgan Kafil korxona direktori va bosh buxgalterining (*agar mavjud bo‘lsa*) pasport nusxasi (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*);
- 10) Yangi taqdim etilayotgan Kafil korxonaning boshqa banklardagi hisob raqamlari bo‘yicha oxirgi 12 oylik aylanmasi to‘g‘risida ma‘lumot (*agar korxonaga boshqa bank tomonidan xizmat ko‘rsatilsa*).

Yuqorida ko‘rsatilgan standart hujjatlar to‘plamidan tashqari mijozdan dastlabki o‘zgartirish turidan kelib chiqib boshqa hujjatlar ham talab qilinishi mumkin.